



ZARDUSHTIYLIK TA'LIMOTIDA URF-ODAT, MAROSIMLAR,
MA'NAVIY- AHLOQIY QARASHLAR

Hasanboyeva Muslima Muzaffar qizi

Namangan davlat pedagogika insitituti

1-bosqich

Ilmiy rahbar: Axmadjanova Muazzam Islomjanovna

Namangan davlat pedagogika instituti

o'qituvchisi

muazzamaxmadjanova70@gmail.com

[+998508826575](tel:+998508826575)

Annotatsiya. Bizlar zardushtiylik dinini ma'naviy me'rosimiz asoslaridan biri ekanligi, shu bilan birga jahon madaniyati shakllanishiga ulkan hissa qo'shganligini alohida ta'kidlashimiz lozim. Ingliz olimasi Meri Boys shunday deydi: «Zardushtiylikning ulug'vor va original ta'limotlari butun Yaqin Sharq hududiga ta'sir etib, uning asosida iudaizm rivojlangan, xristianlik va islom paydo bo'lgan», shuningdek, buddizmning maxayana oqimi ham zardushtiylikdan oziqlangan. «Shuning uchun, – deydi u, – jahon dinlarining barcha jiddiy tadqiqotchilari zardushtiylikni o'rganadilar». Zardushtiylik tadqiqotlariga bag'ishlangan «Zardushtiylik urf-odat an'ana va marosimlar» nomli asari taniqli avestashunos olimasi tomonidan 1979-yilda nashr qilingan. Meri Boys o'zining ushbu kitobida zardushtiylik dini vujudga kelganidan to hozirgi kungacha bo'lgan davrini zardushtiy jamoalarining urf-odat an'ana va marosimlarini yoritib berishga harakat qiladi.

Kalit so'zlar: Zardushtiylik, Meri Boys, avestoshunos, marosim, buddizm, parsizm, din.

Abstract. We should especially note that Zoroastrianism is one of the foundations of our spiritual self, at the same time it has made a huge contribution to



the formation of World Culture. English scholar Mary Boyce says, " the glorious and original teachings of Zoroastrianism influenced the entire Middle Eastern territory, on the basis of which Judaism developed, Christianity and Islam appeared, " and the Mahayana current of Buddhism also fed on Zoroastrianism.e should especially note that Zoroastrianism is one of the foundations of our spiritual self, at the same time it has made a huge contribution to the formation of World Culture. English scholar Mary Boyce says, " the glorious and original teachings of Zoroastrianism influenced the entire Middle Eastern territory, on the basis of which Judaism developed, Christianity and Islam appeared, " and the Mahayana current of Buddhism also fed on Zoroastrianism. "Therefore,"he says, " all serious researchers of world religions study Zoroastrianism." A work devoted to Zoroastrian Studies, "Zoroastrian tradition and rituals", was published by the renowned avestashunos olima in 1979. In this book Mary Boyce tries to illuminate the tradition and rituals of Zoroastrian communities from the birth of Zoroastrianism to the present day.

Keywords: *Zoroastrianism, Mary Boys, avestoshunos, ritual, Buddhism, Marxism, religion.*

Аннотация. *Мы должны особо подчеркнуть, что зороастрийская религия является одной из основ нашего духовного наследия, а также внесла огромный вклад в формирование мировой культуры. Английская ученая Мэри Бойс говорит:" величественные и оригинальные учения зороастризма затронули весь ближневосточный регион, на основе которого развился иудаизм, возникли христианство и ислам", а также течение буддизма махаяны, которое также питалось зороастризмом.ы должны особо подчеркнуть, что зороастрийская религия является одной из основ нашего духовного наследия, а также внесла огромный вклад в формирование мировой культуры. Английская ученая Мэри Бойс говорит:" величественные и оригинальные учения зороастризма затронули весь ближневосточный регион, на основе которого развился иудаизм, возникли христианство и ислам", а также течение буддизма махаяны, которое также питалось зороастризмом.*



"Поэтому, - говорит он, - все серьезные исследователи мировых религий изучают зороастризм". Работа по изучению зороастризма под названием "зороастрийские традиции и ритуалы " была опубликована в 1979 году известным ученым-авестийцем. В этой книге Мэри Бойс пытается пролить свет на традиционные традиции и ритуалы зороастрийских общин с момента зарождения зороастрийской религии до наших дней.

Ключевые слова: зороастризм, Мэри бойс, авестийский, ритуал, буддизм, парсизм, религия.

Hozirgi kunda zardushtiylikka e'tiqod qiluvchi diniy jamoalar mavjud. Ular Hindistonning Mumbai (Bombey, G'ujarot shtatlarida; 115 ming kishiga yaqin), Pokiston, Shri Lanka, Buyuk Britaniya, Kanada, AQSh, Avstraliya va Eronning (Tehronda 19 ming kishidan ortiq) ba'zi chekka viloyatlarida saqlanib qolgan. Eron Islom Respublikasida zardushtiylik diniga e'tiqod qilish qonun tomonidan ruxsat etilgan. Mumbai da zardushtiylikning madaniy markazi Koma nomidagi institut faoliyat olib boradi. Undan tashqari Mumbai da homiy Dxalla raisligida dunyo zardushtiylik madaniyati fondi ishlab turibdi. 1960 yilda zardushtiylikning I umumjahon kongressi Tehronda o'tkaziladi. Meri Boys kitobining birinchi bobida mavzularni batafsil yoritishga harakat qiladi. Kitobning ikkinchi bobida esa mavzu doirasida yuzaga kelgan muammolarni kerakli ma'lumotlar bilan to'ldirishga harakat qiladi. Ushbu kitobda zardushtiylik diniga oid eng ko'p ishlatiladigan atamalar ham berilgan. Bundan tashqari zardushtiylik hududiy taqsimotga ega bo'lganligi sababli, usbu asarda zardushtiylik ta'siri doiralari saqlanib qolgan hududlar to'g'risida aniq tasavvur paydo bo'lishi uchun mo'ljallangan ikkita xarita ilova qilingan. Ushbu xaritalarda aytib o'tilgan har bir shahar yoki arxeologik joylarni hozirgi kunda topish mushkul, lekin ularning joylashgan manzillarini aniq aytish mumkin[1]. Qadimgi eronlikarning dini zardushtiylik deb atalgan, keyinchalik islom dini yoyilishi natijasida Hindistonga ko'chib o'tgan. Bu din eronliklar orasida parsizm deb atalgan. Qadimgi eronliklarning ajdodlari oriylarning yarim ko'chmanchi qabilalari bo'lgan. Miloddan avvalgi 2-ming yillikning o'rtalarida ular



shimol orqali harakatlanib, Eronning tog‘li hududlariga kelib joylashganlar. Oriylar ikki ilohga: Adolat va tartibni o‘rnatuvchi Ahura va tabiat bilan chambarchas bog‘liq devlarga sig‘inishgan. Qadimgi eronliklar orasida olov ibodat vaqtida xudolar va odamlar o‘rtasidagi vositachi va hammani poklaydigan kuch sifatida ulug‘langan. Qurbonliklar vaqtida ular mast qiluvchi Xaoma ichimligini iste‘mol qilishgan. Qadimgi eronliklar dunyoni yettita hududga bo‘lingan deb hisoblashgan. Ularning eng kattasi yerning markazida joylashgan va unda odamlar yashaydi deb tasavvur qilishgan[2]. Eronliklar Zardushtni payg‘ambar deb hisoblashgan. U miloddan avvalgi VII asrda yashagan ruhoniylar sinfiga mansub oilada dunyoga kelgan. Ba‘zi tarixchilar uni tarixiy shaxs deb hisoblashsalar ba‘zi olimlar uni afsonaviy shaxs deb hisoblaydilar. Hozirgi kunda Zardusht afsonaviy yoki tarixiy shaxs ekanligi borasida turli xil fikrlar mavjud. Ba‘zi ma‘lumotlarga ko‘ra Zardusht skif qabilasidan chiqqan deb taxmin qilinadi. Zardusht o‘zini 40 yoshida payg‘ambar deb e‘lon qilgan. Keyinchalik Zardushtning shaxsiyati mifologiyali obrazlar va g‘ayritabiiy fazilatlar bilan ifodalangan. Zardusht insoniyat tarixida insonlarning bu dunyo hayotiga yarasha narigi dunyodagi taqdiri ham bo‘lajagi haqidagi ta‘limotni yaratgan. Bu ta‘limot asosida har bir inson o‘lgandan so‘ng o‘z qilmishiga yarasha mukofot yoki jazo topish g‘oyasi yotadi. [3] Avesto zardushtiylikning asosiy manbasi va muqaddas kitobi hisoblanadi. U Apastak, Ovisto, Ovusto, Abisto, Avasto kabi shakllarda ham ishlatib kelingan. Avesto O‘rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining islomgacha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam to‘g‘risidagi tasavvurlari, urf-odatlarini, ma‘naviy madaniyatini o‘rganishda muhim va yagona manbadir. Uning tarkibidagi materiallar qariyb ikki ming yil davomida vujudga kelib, avloddan-avlodga og‘zaki tarzda uzatilib kelingan. Zardushtiylik dini rasmiy tus olguniga qadar Avestoning bo‘laklari Turon va Eron zamini xalqlari orasida tarqalgan. Ushbu – Axura-Mazdaning Zardusht orqali yuborilgan ilohiy xabarlarini deb hisoblangan bo‘laklar turli diniy duolar, madhiyalar sifatida yig‘ila boshlangan. Bular Zardushtning o‘limidan keyin kitob holida jamlangan va «Avesto» – «O‘rnatilgan, qat‘iy qilib belgilangan qonun-qoidalar» deb nom olgan. Zardushtiylik ta‘limoti



Markaziy Osiyoda ibtidoiy davrda mavjud bo'lgan tabiat kuchlarini ilohiylashtiruvchi e'tiqodlarga (Markaziy Osiyo qadimgi aholisining «eski dini»ga) nisbatan monoteistik ta'limotdir. U behuda qon to'kuvchi qurbonliklar, harbiy to'qnashuvlar, bosqinchilik urushlarini qoralab, o'troq, osoyishta hayot kechirishga, mehnatga, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanishga da'vat etadi[4].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Boyce, Mary (1984), Textual sources for the study of Zoroastrianism, Manchester: Manchester UP.
2. Boyce, Mary (1987), Zoroastrianism: A Shadowy but Powerful Presence in the Judeo-Christian World, London: William's Trust.
3. Clark, Peter (1998), Zoroastrianism: An Introduction to an Ancient Faith, Brighton: Sussex Academic Press.
4. 1.Zenodo <https://zenodo.org>1.Boyce, Mary (1987), Eencyclopedia, Costa Mesa: Mazda Pub, pp. 9–10